


"O'zbekiston milliy elektr
tarmoqlari"
aktsiyadorlik jamiyatni
Boshqaruv raisi
D. Isaqulov



**«O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari» aktsiyadorlik jamiyatining korrupsiya
faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik
HISOBOT**

I. Umumiy ma'lumot

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aktsiyadorlik jamiyatni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 martdag'i "O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4249-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Yuqoridagi qarorga asosan, yangi tashkil etilgan "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aktsiyadorlik jamiyatni O'zbekiston Respublikasining magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish, elektr energiyani respublikaning magistral elektr tarmoqlari orqali etkazib berish va davlatlararo tranzitni amalga oshirish, qo'shni davlatlarning elektr energetika tizimi bilan hamkorlik qilish "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aktsiyadorlik jamiyatining asosiy faoliyat turlari hisoblanadi.

Bugungi kunda "O'zbekiston met" AJ tarkibida 14 ta hududiy magistral elektr tarmoqlari, Markaziy rele himoyasi va avtomatika xizmati, loyihalashtiruvchi, qurilish va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi funksional filiallar mavjud. Jamiyatga qarashli 84 ta podstantsiya va 11 650 km dan ortiq 220-500 kVli magistral havo elektr uzatish liniyalari mavjud. "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aktsiyadorlik jamiyatni Markaziy apparati va tarkibidagi tuzilma hamda filiallarda jami bo'lib 4300 nafardan ziyod mutaxassis-xodimlar mehnat faoliyati olib bormoqda.

«O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari» AJning uzbekistonmet.uz rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarimizda "Korrupsiyaga qarshi kurashish — O'zbekiston MET» AJ" nomli rukn va sahifalar ochilgan.

Unda Aksiyadorlik jamiyatimiz tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash yo'naliishida olib borilayotgan ishlar, xususan Molivayi boshqaruv, biznes etika, shaffoflik va komplaens xizmatning murojaatlari, ma'lumot va hisobotlari berib boriladi.

⇒ Misol uchun: <https://telegra.ph/uzbekistonmetuz-11-07>

Ushbu telegram kanaliga siz ushbu ⇔

♦ <https://t.me/+qCweNscaSEhINGM6> ♦ ⇔ havola orqali a'zo bo'lish mumkin.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda byurokratik to‘sqliarni bartaraf etish va “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish choralari ko‘rilmoxda, “Korrupsiyasiz soha” loyihibarining joriy etilishi yuzasidan muhim vazifalar ijrosi ta’milanmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining samaradorligini ta’minalash maqsadida xorij amaliyoti uyg‘unligida korrutssiya ko‘rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish — davr talabi.

2021 yilning 22 uyulda Aksiyadorlik jamiyati energotizimda birinchilardan bo‘lib ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi xalqaro sertifikatini olishga muvaffaq bo‘ldi.

Xalqaro standart talablariga ko‘ra, Jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli ish jarayoni yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, rahbar xodimlarga shu sohada o‘z malakalarini oshirish hamda malaka oshirishda olgan bilimlarini amalda qo‘llash, umuman, tizimli ish jarayonini joriy etish maqsadida maxsus o‘quv tashkil etildi.

2021-yilning 13–16-iyul kunlari ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga karshi kurashish menejment tizimi” bo‘yicha o‘quv kursida 20 nafar boshqaruva a’zolari va rahbar xodimlari qatnashib, korrupsiyaga qarshi kurash yo‘nalishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashdi.

Ushbu o‘quv kursida tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni shakllantirish, korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy qilishning asosiy omillari, korrupsiyaviy tavakkallarni (riskni) baholash, manfaatlar to‘qnashuvni hamda sovg‘a olish-berish siyosatini tartibga solish, ichki audit tizimining ishini samarali tashkil etish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ichki me'yoriy tartib-qoidalarni ishlab chiqish bo‘yicha tegishli bilimlar o‘zlashtirildi.

Sertifikat topshirish tadbirida «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi Isaqulov Dadajon Aynaqulovich so‘zga chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishda birinchi galdeg'i vazifalar ijrosini ta’minalash rahbar xodimlarga yelkasiga yuklatiladigan vazifa ekanligi, ularning malakasini muttazam oshirib borish zarurligi, ishchi jarayonlarda masalalarini to‘g‘ri va xolis baholash mezonlari yaxshi o‘zlashtirib olinishi zarurligini ta’kidladi. Jamiyat faoliyatining shaffofligi ijro intizomining qat’iy talablariga, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayoniga raqamli texnologiyalar kirib kelishi orqali inson omilining kamaytirilishiga, nazorat-taftish, hisobotlarning to‘g‘riligiga, amalga tatbiq etilayotgan ichki buyruq va topshiriqlarning huquqiy asoslari — amaldagi qonunchilikka ko‘ra ish ko‘rilibshiga, qolaversa, ishchi-xodimlarning bilim-tafakkuri va tarbiyasi, ma’naviy dunyosiga bog‘liqligini sanab o‘tdi. Faoliyat qancha ochiq va shaffof bo‘lib, amaldagi qonunlarga tayangan tarzda amalga oshirilsa, korrupsiyaga shunchalik sharoit bo‘lmashligi, unga qarshi kurashish faqat to‘g‘ri va halol ishlashga, o‘z ishiga sidqidildan yondashishga ko‘p tomonlama bog‘liqligi ta’kidlandi.

Ta'kidlash joizki, ISO 37001:2016 — bu tashkilotda korrupsiyaga qarshi samarali tizimni yaratish uchun xalqaro modelni o‘z ichiga olgan dunyodagi birinchi xalqaro standart hisoblanadi. Alovida e'tirof etish joiz, ISO 37001:2016 sertifikatini olish orqali tashkilot investorlar, tadbirkorlar, davlat hokimiyati organlari va boshqa manfaatdor tomonlarga jarayonlarni shaffof, qonuniy va jahonning ilg‘or tajribalariga mos ravishda o‘tkazishni yuqori darajada namoyish etishini ta'minlaydi.

"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aktsiyadorlik jamiyati Markaziy apparatining 1 200 dan ortiq xodimlardan korrupsiya holatlarini aniqlash va monitoring qilish bo'yicha anonim so'rovlar o'tkazildi.

To'plangan ma'lumotlar umumlashtirilib, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aktsiyadorlik jamiyati korruption risklarni oldini olishda korruption risklar ro'yxati bo'yicha yo'l xaritasi va "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aktsiyadorlik jamiyati tizimida raqobat to'g'risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasi loyixalari ishlab chiqilib, boshqaruva raisining buyrug'i bilan tasdiqlandi.

II. Ko'rib chiqish natijalari

Jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo'yicha murojaatlarini qabul qilishda va compliance tizimida xodimlar tomonidan qoidabuzarlikni xabar qilish uchun quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Maxsus "ishonch telefoni" +998 71 -208-56-49 ajratildi;

Alovida elektron pochta (biznesetika@uzbekistonmet.uz) ochildi va mas'ul xodim biriktirildi;

facebook (<https://www.facebook.com/elektrtarmoq/>);

Maxsus Telegram kanali t.me/uzmetaxborotxizmati ochildi.

Sovg'alar va unga tenglashtirilgan qimmatbaho buyumlarni ro'yxatdan o'tkazish reestri shakllantirildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aktsiyadorlik jamiyati faoliyatining barcha yo'nalishlaridagi korruptionsiyaviy shart-sharoitlarni minimallashtirish hisobiga korruptionsiya huquqbazarligi minimal darajaga tushirildi. Aktsiyadorlik jamiyati ishchi-xodimlari o'rtasidagi korruptionsiya va uning oqibatlari to'g'risida seminarlar o'tkazildi.

Jamiyatning uzbekistonmet.uz veb-saytida "murojaatlar" rukni orqali jamoatchilik vakillari bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot yo'lga qo'yildi. Elektron sahifaga viloyat magistral elektr tarmoqlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlar, jumladan, ularning rahbarlari, joylashgan manzili va telefon raqamlari joylashtirildi.

Jamiyatning rasmiy veb-sahifasida, "korruptionsiyaga qarshi kurashish" "raqobat cheklanishi to'g'risida xabar ber" interaktiv tugmacha yaratildi, kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilib borish va murojaatlarni ruyxatdan o'tkazish jurnali joriy etildi.

**"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aktsiyadorlik jamiyatiga
01.01.2022 yildan 31.12.2022 yilgacha jismoniy va yuridik shaxslarning
korrupsiya masalalari bo'yicha murojaatlarini kelib tushmagan.**

III. Minimallashtirish choralar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli farmoni, ISO 37001:2016 "korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari – foydalanish bo'yicha talablar va tavsiyalar" xalqaro standarti hamda "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aktsiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonunchilik hujjalari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish (minimallashtirish) bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unda kuyidagi xolatlar aks ettildi:

"to'rt ko'z" tamoyilini amalga oshirish, majburiy talablar to'g'risidagi ma'lumotlarni nazorat qilinadigan sub'ektlarga etkazish, yuqori darajadagi jamiyat tomonidan tegishli ma'lumotlarni qabul qilish va ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

qaror qabul qilishning aniq asoslari va mezonlarini belgilash, qaror qabul qilishda ma'muriy ixtiyoriylikni yo'q qilish, majburiy talablarning buzilishini dastlabki aniqlash paytida nazorat qilinadigan sub'ektlarning ayrim toifalari uchun ogohlantirish tizimini joriy etish;

bittadan ortiq mahsulot, ish, xizmatni o'z ichiga olgan har xil tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni bir xil xaridda birlashtirish maqsadga muvofiqligini jamiyat vakolatli bo'linmasi tomonidan baholash, davlat organining vakolatli bo'linmasi tomonidan boshqariladigan sub'ekt va xizmatchilar (xodimlar) o'rtasida mumkin bo'lgan affilanganlik mavjudligini tekshirish;

rejalashtirilgan tekshiruvlarni o'tkazishning yillik rejasi loyihasini tuzishda jamiyat va nazorat organining vakolatli bo'linmasi nazorat qilinadigan sub'ekt bilan jamiyat va nazorat organi xizmatchilar (xodimlar) o'rtasida bog'liqlik mavjudligini tekshirishlar kamashadirishni o'z ichiga olgan.

**Muvofiklik tizimi (komplaens)
xizmati boshlig'i**

N.Abdullaeva